

**O'ZBEKISTONDA JAMIYATNI MA'NAVIY YANGILANISHI JARAYONIDA
YOSHLARNING MADANIY ME'ROSGA MUNOSABATI**

Xamrayeva Sojida Qodirbekovn

Namangan viloyati yuridik texnikumi ingliz tili fani o'qituvchisi

Qurbonov Ravshan Raimjonovich

Namangan viloyati yuridik texnikumi Yoshlar bo'limi uslubchisi

Annotatsiya: *Mustaqilligimiz qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardanoq, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosimiz, milliy qadryatlarimizni tiklashi jarayonlarini to'ldirish ochib berish. Shuningdek, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan jamiyatimiz a'zolari bo'lmish yoshlar qanday buyuk ajdododlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadryatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadryatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan, Yangi O'zbekistonni barpo etishda tarixiy asoslarga ega bo'lgan, yoshlarning madaniyat va san'at sohasidagi xissalari, qo'lga kiritgan yutuqlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Madaniyat, san'at, raqs, maqom, baxshi, qaror, farmon, hujjat, islohot.*

Annotation: *From the first days of our independence, to fill and reveal the processes of restoration of our huge, priceless spiritual and cultural heritage, our national values created by our ancestors over many centuries. Also, the young people who are the members of our society, who are the main driving force of it, should live with the feeling of the heritage of our great ancestors, how many thousands of years of history, unique culture and values we have, to preserve this wealth, democratic values, achievements of the entire world development. The contributions and achievements of young people in the field of culture and art, which correspond to the centuries-old aspirations of our people, fully respond to its national interests, have historical foundations in the establishment of New Uzbekistan, were analyzed.*

Key words: *Culture, art, dance, status, gift, decision, decree, document, reform.*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi, madaniyati va san'ati tarixini o'rganish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Shu nuqtai nazarda milliy o'zlikni anglash, xalqlar o'rtasidagi totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, umumiy barqarorlikni saqlash ishida tariximizga bo'lgan e'tiborni kuchayishi uni o'rganishda sezilarli ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevralda imzolangan "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish,

boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-sonli qaroriga asosan, bir qator ilmiy-tadqiqot muassasalari Fanlar akademiyasi tarkibiga o'tkazildi. O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashiga aylantirildi, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashining quyidagi asosiy vazifalari belgilandi: O'zbekistonning eng yangi tarixini zamonaviy nazariy-metodologik, fanlararo yondashuvlarga, tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda tizimli o'rganishni tashkil etish, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik ishlarini muvofiqlashtirish; fuqarolarda tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyat, xalqning tarixiy an'analari, madaniy merosiga hurmat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan⁵. O'zbekiston jamiyatini ma'naviy yangilanish jarayonida ma'naviy faoliyatning turli shakllari mavjud, biroq, ularning barchasi ilk butunlik elementlari bo'lib qoladi. Fan, din, falsafa, san'at, axloq, huquq, siyosat, mafkura, milliy o'zlik ma'naviy madaniyatning aniq shakllari hisoblanadi. Alohida shakldagi ma'naviyatning xususiyati maxsus tuzilish va ma'lum vazifalar majmuidan iborat, har birining ma'naviy faoliyatning turli shakllari mavjud, fan, din, falsafa, san'at, axloq, huquq, o'ziga xosligida ifodalanadi.

Ma'naviy madaniyatning ayrim shakllari (fan, san'at) "chegaralanganlikda" farqlanadi, ya'ni ma'naviy madaniyatning aniq sohasiga aylanadi, boshqa shakllarida (axloqiy, estetik) faoliyatning barcha turlari qorishib ketadi.

Madaniyatdagi hayratlanarli funksional haqqoniylik shuki, unda hech bir ortiqcha, shunchaki narsa yo'q, barcha madaniyat hodisasi o'zaro foydali umumiy aloqadorlikda kechadi. Ma'naviy madaniyat kishilar ma'naviy ijodkorligi faoliyatlari natijalari-tasavvurlar, g'oyalar, ilmiy bilimlar, diniy qarashlar, san'at sohalari, axloqiy va huquqiy me'yorlarni ishlab chiqarishdan hosil bo'ladi. Bunday ma'naviy qadriyatlar o'zicha paydo bo'lmaydi, balki muayyan taraqqiyot bosqichida o'zaro munosabatga kiradigan kishilar tomonidan yaratiladi.

"Ma'naviy madaniyat – ma'naviy ijodning shunchaki mahsuloti bo'lmay, balki ijodiy faoliyatni amalga oshiradigan kishilar o'rtasidagi munosabatni ham bildiradi. Shuningdek, ma'naviy madaniyat ta'lim va fan sohasi bilan bog'langan ilmiy faoliyat va bilim olish jarayoni bilan uzviy bo'lgan bilish madaniyatini, axloqiy va estetik madaniyatni o'z ichiga oladi. Natijada, ma'naviy madaniyat o'zaro uzviy bog'liqda inson ma'naviy fazilati va faoliyatining narsalarda moddiylashgan shaklida, inson tomonidan

⁵ To'ychiboyeva S. O'zbekistonda jamiyatni ma'naviy yangilanishi jarayonida madaniy merosga munosabati // "Xalq so'zi", 2017-yil 1-iyul. – №3.

yaratilgan ma'naviy qadriyatlar shaklida (ilm, san'at, huquq, axloq qoidalarida) mavjud bo'ladi⁶.

Har bir jamiyat shaxs madaniyatini kamol toptirishda o'zining me'yoriy qadriyatlarini belgilaydi va shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlaydi. Jamiyat bilan shaxsning o'zaro munosabati, shaxsning erkinligi, uning huquq va burchlari, insoniy qadriyatlar haqidagi muammo barcha tarixiy davrlardagi muhim masala hisoblangan. Inson tabiatning oliy mahsuli bo'lib, uning mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisi bilan belgilanadi.

Inson ayni paytda ham tarixiy taraqqiyotning mahsuli, ham uning sub'ektidir. Keyingi avlodlarga meros qoldirish uchun madaniyatda belgilangan usul va mexanizm mavjud. Ulardan ba'zilariga qadimdan amal qilinadi, bu – namoyish qilish, og'zaki uzatish, folklor, san'at; boshqa usullar keyinroq paydo bo'ldi, bu – kino tasviri, ohangrabo yozuvi, kompyuter xotirasi. Barcha jamiyatlarda ham haqiqatdan ma'naviy merosning foydalanish imkoniyatlarini o'zgartirish sharoiti bir hilda emas. Ular ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy omillar bilan belgilanadi. Bu omillar merosning hajmi, tanlash xususiyati, intensivligiga bog'liq.

Bizga ma'lumki sovet jamiyatida kommunistik g'oya hukmronligi davrida xalqlar, xususan O'zbekistonda ham o'zining haqiqiy tarixiy, milliy va ma'naviy merosidan mahrum etilgan edi. Umuman, madaniy merosdan mutlaqo mahrum bo'lgan yoki foydalanmagan jamiyat yoki xalqlar tarixda bo'lishi mumkin emas.

“Uzoq davom etgan qattiq mafkuraning tazyiqiga qaramay, O'zbekiston xalqi avlodlardan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi”.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oya ulkan bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi nihoyatda muhim vazifa hisoblanadi⁷. Jamiyatimiz jadal tub o'zgarishlar holatini boshdan kechirmoqda. Bunday davrda har bir kishiga mustahkam tayanch zarur.

Faqat milliy g'oya shunday tayanch bo'lishi mumkin. Faqat milliy g'oya islohatlar yo'lidan muvaffaqiyatli borish uchun millatni birlashtirishi va jipslashtirishi mumkin. O'zbekistonning kelajagi to'g'risida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining mulohazalarida birinchi darajali qilib milliy g'oyani shakllantirishni qo'yadi. Uning asosida xalqning haqiqiy tarixini qaytarish, milliy an'analarni tiklash, madaniy va ma'naviy merosni o'rganish yotadi.

Xuddi shu g'oya – XXI asrda O'zbekistonning ozod fuqorolarining ma'naviyati shakllanishida katta ahamiyat kasb etib, ularning o'z Vatani gullab-yashnashi uchun fidoiy bo'lishi, o'z xalqining buyuk o'tmishidan faxrlanuvchi millat farzandlari bo'lib

⁶Abdullayev M., Umarov E. Madaniyatshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: “Turon-Iqbol”, 2006. – B.15.

⁷ Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2006. – B. 337-341.

shakllanishi uchun xizmat qiladi deb ta'kidlagan edi⁸. O'zbek xalqining madaniy merosi ming yillar davomida yaratilgan. Unda turli davrlarda O'zbekiston xududida e'tiqod qilingan zardo'shtiylik, buddizm, islom va boshqa dinlar yaratgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mujassamlashgan; Shu bilan birga dunyoga mashhur imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Naqshbandiy, Yassaviy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, A.Navoiy kabi ko'plab buyuk mutafakkirlarning bilimi va salohiyati gavdalangan, bu merosda Amir Temur va Boburlarning davlatchilik va siyosiy qurilish tajribalari; buyuk me'morchiligi shakllangan.

Shuningdek, unda o'z davrida mashhur bo'lgan bobakalonlarimiz imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Naqshbandiy, Yassaviy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, A.Navoiy kabi ko'plab buyuk mutafakkirlarning bilimi va salohiyati va ularning tasviriy san'at, muzika, amaliy san'at asarlari: xalq urf-odatlar va an'analari, milliy sport turlari uyg'unlashgan. Mustaqillik yillarida xalqqa uning ma'naviy va madaniy boyliklarini qaytarish borasida ko'plab ishlar qilinmoqda.

Bunda dastlabki, eng muhim qadam "O'zbek tili haqidagi" qonunning qabul qilinishi bo'ldi. Bu bilan o'zbek tilidagi xalqning bebaho madaniy va milliy boyligi maqomi tiklandi. Bundan tashqari, Buxoro va Xiva shaharlaridagi me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlash borasida faol ishlar olib borilib, yodgorliklar shu davrda jahon ahamiyatidagi maqomga ega bo'ldi. Bu shaharlarning 2500 yilligi, Toshkentning 2000 yilligi kabi sanalar katta tantana bilan nishonlandi.

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga qaramasdan milliy madaniyatni asrovchi yangi muzeylar barpo etildi: Temuriylar davri tarixi muzeyi. Olimpiya shon-sharafi muzeyi va O'zbekiston tarixi muzeyi yangi mazmunda boyitildi.

Maqomchilar muzeyi va boshqalar dunyoga mashhur bo'ldi.

Milliy va jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan vatandoshlarimizning xizmatlari haqida yubiley tantanalari o'tkazildi. O'tgan yillarda Navoiy, Bobur, Qodiriy, Behzod, A.Farg'oniy yubileylari nishonlandi. Alohida tantanalar bilan xalqaro miqiyosda Ulug'bekning 600-yilligi, Amir Temurning 660 yilligi, Imom Buxoriyning 1225 yilligi o'tkazildi. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi va "Alpomish" eposining 1000 yilligi keng nishonlanib, kelinmoqda. Ayniqsa katog'on qurbonlarining begunoh xotirasi tiklanishi katta ahamiyatga ega bo'ldi⁹. Milliy an'analarni tiklash bo'yicha ham ko'plab ishlar qilindi. Navro'z, hayit kabi qadimgi xalq va diniy bayramlar rasman hayotga qaytdi. Hayr muruvvat udumlarini davom ettirish va yosh avlodni barkamol o'stirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Sog'lom avlod uchun jamg'armasini tashkil qilinib, dastlabki ordenini ham shunday ataldi.

Nogiron bolalar uchun "Mehribonlik" kabi sahovat festivali muntazam o'tkazib kelinmoqda. O'zbekistonda xalqaro kino, teatr va "Sharq taronalari" kabi musiqali

⁸ Каримов И.А. Истиклол ва манавият. – Т.: Маънавият, 1994. – Б. 25.

⁹ Хайруллаев М. Маданий мерос ва фалсафий фикр тарихи. –Т.: Шарк, 1985. – Б. 89-90.

festivallar o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib qoldi. Xalq bahshichilik san'atiga e'tibor kuchayib Respublika konkursleri o'tkazildi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, madaniy qadriyatlardagi vorislik jarayoni nafaqat milliy madaniyatlar rivojidadagi vorislik bo'lmay, balki boshqa xalqlar madaniyatidagi yutuqlarni umumlashtirishdan ham iboratdir¹⁰. Markaziy Osiyo mintaqasida yashovchi xalqlarning madaniyati qadim zamonlarda ham g'arb va sharq mamlakatlari bilan yaqin madaniy aloqalar asosida rivojlangan.

Madaniy hamkorlikning keng ko'lami, etnik va diniy mazmundagi cheklanmaganlik Vatanimiz madaniyatining asosiy xususiyatidir. O'lkamiz yoshlari hozirgi davrda ham milliy madaniyatni tiklashga asosiy e'tiborni qaratgan holda O'zbekiston xalqi jahon madaniyati va sivilizatsiyasining zamonaviy yutuqlarini egallashga harakat qilib, jahon madaniyati rivojiga hissa qo'shmoqda. Bu borada jadal amaliy ishlar qilinmoqda: xalqaro konkurs va festivallar o'tkazildi, chet mamlakatlar madaniyat kunlari va san'at asarlari ko'rgazmasi namoyish qilindi.

Buning dalili sifatida "Mirzo Ulug'bek va uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi" (1994). "O'zbekistonning jahonda tutgan o'rne va roli", "Buxoro va jahon madaniyati" (1995), "O'rta Osiyo va jahon sivilizatsiyasi" (1998) kabi mavzularda o'tkazilgan xalqaro konferensiya va seminarlarni ko'rsatish mumkin. O'zbekiston o'zining boy madaniy an'analari va jahon madaniyati jarayonlaridagi faol ishtiroki tufayli uning xalqaro miqyosidagi mavqei tobora oshmoqda. Buning yaqqol misoli 1997-yilda YUNESKO ijroiya kengashi a'zoligiga O'zbekistonning saylanishi va 1998-yil 6-noyabrda Toshkentda YUNESKO ijroya kengashining 155-sessiyasini o'tkazilishidir. Unda O'zbekistonning taklifi bilan "Jahon madaniyat va YUNESKO ning a'zo davlatlaridagi faoliyati" degan hujjat qabul qilindi. Jahon madaniyatining ajlalmas qismi hisoblangan milliy madaniy merosni asrash va o'rganish rejasi bo'yicha O'zbekiston YUNESKO bilan o'zaro munosabatlarini yanada kengaytirishi va respublikada zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishi mo'ljallangan.

Madaniy meros, meros mexanizmi, vorislilik, madaniy taraqqiyotda milliylik va umuminsoniylik, moddiy va ma'naviy madaniyat, siyosiy va huquqiy madaniyat, iqtisodiy madaniyat, axloqiy-estetik madaniyat, ijodiy salohiyat, qadriyat sivilizatsiya, kommunikativ funktsiya, ijtimoiy mohiyat, diletant¹¹. Mustaqillik yillari xorijiy mamlakatlarga chiqib, o'zbek xalq ijodini jahonga tanitib kelgan ba'zi folklor jamoalari haqida qisqa ma'lumotlar keltiramiz:

Toshkentning "Kamalak" folklor-etnografik ansambli, Andijonning "Sumalak" xalq raqs ansambli, Xorazm viloyati xalq ijodiyoti markazi qoshidagi "Meros" bolalar namunali folklor-etnografik jamoasi, Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi "Chaman" folklor guruhi, Quvaning "Anor" xalq ashula-raqs ansambli, Navoiy viloyat qo'shma folklor jamoasi Misr, Turkiya, AQSH, Fransiya, Pokiston,

¹⁰Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Маънавият, 1998. – Б. 36.

¹¹Ойдинов Н. Ўзбекистон халқлари санъти тарихи. (Дастур). – Тошкент, 1993. – Б. 18.

Yaponiya kabi mamlakatlarda bo‘lib o‘tgan xalqaro folklor festivallari va boshqa tadbirlarda ishtirok etib, vatanimizga ko‘plab nufuzli sovrinlar olib kelishgan.

Chet ellarda o‘zbek xalq ijodiga oid ko‘plab kitoblar, maqolalar chop etilmoqda. Keyingi yillar milliy madaniyatimiz o‘tmishi va bugungi kunini uzviy bog‘laydigan festivallar safi kengayib bormoqda, Madaniyat va san‘at forumining yangi keng qamrovli loyihasi – “Asrlar Sadosi” festivali ham xalqimizning an‘analari, amaliy san‘ati va milliy taomlari, xalq og‘zaki ijodi kabilarning boy va rang-barang ekanligini namoyon etmoqda. Ushbu festival har yili mamlakatimizning turli madaniy va tarixiy maskanlarida mutaxassislar, olimlar va xorijiy mehmonlar ishtirokida xalqaro darajada YUNESKO hamkorligida o‘tkazilib kelinmoqda. 2008-yilda Festival Kitob tumanida, 2009-yilda esa Parkent tumanida o‘tkazilgan “Asrlar sadosi” festivalida folklor va teatr guruhlar, xonandalar, musiqachilar, raqqoslar, xalq baxshilari, masxarabozlar, liboschi dizaynerlar, rassomlar, amaliy san‘atning atoqli vakillari, mohir oshpazlar ishtirok etishdi. Festival dasturi, shuningdek, xalq o‘yinlari, ko‘pkari (uloq), kurash, dorbozlar chiqishi, mamlakatning turli viloyatlaridan kelgan oshpazlar tanlovini ham o‘z ichiga olgan. Festival amaliy san‘at yarmarkasi doirasida kulolchilik, kandakorlik, kashtachilik, miniatura, o‘ymakorlik ustalari ham o‘z mahoratlarini namoyish etdilar. Festivalga 50 ming nafarga yaqin tomoshabin, 15 mingga yaqin mehmonlar tashrif buyurishdi. Ular orasida Rossiya, Fransiya, AQSH, Turkiya, Koreya, Italiya, Yaponiya, Xitoy. Shveysariya, Bolgariya, Avstriya kabi davlatlardan 100 nafardan ortiq madaniyat va san‘at arboblari, olim va tadqiqotchilar, nufuzli xalqaro OAV vakillari, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar xodimlari bor edi¹².

Respublikamizda muntazam ravishda o‘tkazib kelinayotgan turli xil ko‘rik-tanlovlar, Respublika miqyosidagi tadbirlar o‘zbek milliy san‘at turlarining rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilmoqda. Milliy dorbozlar va an‘anaviy sirk san‘ati jamoalarining Respublika ko‘rik-festivali, Askiyachi va qiziqchilaming an‘anaviy Respublika ko‘rik-festivali, Yosh kulollarining Respublika ko‘rgazmasi, Qo‘g‘irchoqbozlik san‘ati bayrami, Xalq ashula va raqs ansambllarining

Respublika ko‘rik-festivali, “Barhayot navolar” turkumidan milliy cholg‘usozlar ijrochilarining Respublika ko‘rik-festivali mamlakatimizning ko‘plab viloyatlarida iqtidorli ijrochi yoshlarni kashf etmoqda. Joylarda milliy qadriyatlar, xalq ijodiyotini targ‘ib qilish maqsadida 2006- yildan buyon “Xalq ijodiyoti poyezdi” tashkil etildi. Bu poyezd yordamida respublika ko‘rik-tanlovlar, festivallar g‘oliblarining chekka qishloqlar aholisi bilan ijodiy uchrashuvlari o‘tkazilmoqda. Madaniyat poyezdi aholiga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatib, xalq ijodiyotining noyob durdonalari (o‘lan, lapar, askiya, baxshichilik va folklor san‘ati turlari)ni keng omma o‘rtasida targ‘ib etib bormoqda. Endilikda hanuzgacha deyarli o‘rganilmagan an‘anaviy dam olish madaniyatiga alohida e‘tibor berish lozim bo‘lmoqda. Shu sababli xalq orasida

¹²Azimova Ch., Jo‘rayev F. Tarixiy-madaniy meros o‘zlikni anglash omili sifatida. // Mamlakatimizda uchinchi renessans g‘oyasini keng targ‘ib qilishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati va o‘rni mavzusida ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. 2022-yil 12-may. – Denov, 2022. – B. 370-372.

mashhur bo'lgan mavsumiy dam olish an'analari ("Gul sayili", "Suv sayili", "Tog' sayili", "Bog' sayili", "Gap – gashtak" kabilar)ga hamda turli tarixiy jarayonlarda madaniy-ma'rifiy hordiq chiqarish maskanlari (Erkaklar uyi. Otashxona, Yodgoh. Sherda, Madaniy bog'lar, Tarobxona, Tomoshagoh, Sayilgoh, Choyxona kabilar) tajribasi diqqatga sazovordir¹³.

Bundan tashqari, Qo'qon shahrida YUNESKO rahnomoligida birinchi xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazilishi har bir xalq hayotida, uning turmush tarzi va qadryatlari rivojida alohida o'rin tutdi. Festivalga dunyoning 78 ta davlatidan 370 dan ziyod mohir hunarmand, taniqli madaniyat arboblari, san'atshunos olimlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtiroki Qo'qon shahriga "Jahon hunarmandlar shahri" degan yuksak unvon berilishi va dunyo hunarmandchilik xaritasida muhim rol egallaganligidan dalolatdir.

Shu o'rinda Buxorolik mashhur zardo'z Muyassar Temirova, Samarqandlik temirchi usta Mirumar Asadov, Farg'onalik yog'och o'ymakori Abdug'ani Abdullayev kabi yurtdoshlarimiz mamlakatimizning eng oliy mukofoti-O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgani ushbu soha vakillarining sharaflari mehnatiga yuksak e'tibor ifodasidir¹⁴.

Yangi O'zbekistonda taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ham milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni tarixdan saboq olish, o'tmishimizni to'g'ri taxlil qilgan xolda xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan oziqlantirib qurollantirishimiz zarur buning uchun, esa mamlakatimizdagi barcha yoshlarimizda zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan birgalikda, qon-qonimizga singgan muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini to'g'ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalashimiz kerak. Hozirgi kunda mamlakatimiz hududlarida saqlanib kelayotgan osori-atiqalar, ulug' allomalar nomi bilan bog'liq muborak qadamjolar nihoyatda ko'p. Masalan, Mo'ynoq tumani hududida Xo'ja Ahmad Yassaviyning shogirdi, tasavvuf ta'limotining yirik namoyondasi Sulaymon Boqirg'oniy maqbarasi joylashgan. Xalq orasida "Xakim ota" nomi bilan shuhrat qozongan bu zot sodda va xalqona uslubda yozgan asarlari bilan turkiy adabiyot olamida alohida e'tirof etiladi¹⁵.

2023-yili Sulaymon Boqirg'oniy tavalludiga 900 yil to'ladi. Ana shu muhim sana munosabati bilan shoir bobomizning maqbarasini obod qilish asarlari chop etilishi, har jihatdan o'rinli.

Shuningdek, turli davrlarda Nasaf shahrida 400 dan ziyod islomshunos olimlar yashab faoliyat ko'rsatgan. Ularning ilmiy merosini chuqur o'rganish, asarlarini bugungi tilimizda, keng jamoatchilikka tushunarli qilib nashr etish. Xususan, Abul Muin Nasafiy, Najmiddin Nasafiy, Aziziddin Nasafiy, Barokat

¹³Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2006. – B. 423.

¹⁴Mirziyoyev Sh M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari.- T.: "O'zbekiston", 2020.- B.322-324

¹⁵Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022. – B. 26

Nasafiy, Xiromiy, Sayido Nasafiy, Xayoliy singari ulug' allomalarimizning ma'naviy merosi bugun ham beqiyos ahamiyatga ega.

Ayniqsa, bu ulug' allomalarning ezgu ishlarini davom ettirish, asarlarini chuqur o'rganishi va targ'ib etishi, allomalarimiz merosini xalqimizga, yoshlarimizga keng tanitishimiz kelajakda yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, ishlarini muvaffaqiyatli ado etgan bo'lamiz.

Aholining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama ma'naviy barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlik hissi shakllangan, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash Yangi O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o'rin olishining muhim omilidir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: – Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz.

Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz¹⁶ – deb, ta'kidlab o'tdilar. Albatta, bugungi kunda bu borada yurtimizda barcha sohalarida ulkan o'zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yoshlarimizning bilim olishlari, kasb-hunar egallashlari, iqtidori va layoqatini namoyon qilishlari uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Albatta, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasi va Uchinchi Renessans asosini yaratish borasidagi tashabbusi bugun reallikka aylanib bormoqda. Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangrab, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda. Jumladan, yoshlarimiz o'zlarining vatanparvarligi, mehnatsevarligi, ilmga chanqoqligi va olib borilayotgan islohotlarda daxldorlik hissini sezgan holda faol qatnashmoqdalar.

Ayniqsa, yoshlarimizning o'z oldilaridagi burch va vazifalaridan kelib chiqqan holda yurtimizdagi boy ma'naviy va madaniy merosimizni avaylab asrash, kelajak avlodlarga yetkazish borasidagi faolligi hamda ushbu merosdan faxrlanish, g'ururlanish hissi yanada ortib, ularni chuqurroq o'rganishga dunyo hamjamiyatiga targ'ib etishga o'z hissalarini qo'shmoqdalar zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: – Bizning eng asosiy yutug'imiz – ko'p millatli xalqimizning vujudga kelayotgan qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va

¹⁶ Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016. B.14

ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga beparvo bo'lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg'usi bilan yashayotganidir.

Jumladan, mamalakatimizda joylashgan Nurota shahar – Chashma tarixiy-me'moriy majmuasi xususida to'xtalib o'tsak, –Yurtimizning boy tarixga ega bo'lgan Nurota shahri geografik jihatdan O'zbekistonning markazida joylashgan bo'lib Nurota tumani shimoliy-sharqdan Jizzax, janubiy-sharq va sharqdan Samarqand viloyatlari, g'arb va janubiy-g'arbdan Navoiy viloyatining boshqa tumanlari bilan chegaradoshdir. Shu bilan birga shaharning tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi.

Nurato yoki Nuri Buxoro nomi bilan tarix sahifalaridan o'rin olgan mazkur tarixiy shahar haqida Abu Bakr Narshaxiy ma'lumot berib, uni Buxoro tarkibidagi tarixiy joy sifatida qayd etadi. Narshaxiy IX-X asrlarda yashab o'tganligini nazarda tutadigan bo'lsak va uning bu hudud haqida o'sha davrda ma'lumotlar yozib qoldirilganligini hisobga olsak, u holda Nurning qadimiyligiga shak-shubha qolmaydi. Me'moriy yodgorliklar asosan Shayboniylar davrining mahsulidir va keyingi davrlarda ya'ni mang'itlar sulolasi hukmronlik qilgan vaqtda ta'mirlangan. Narshaxiyning yozishicha, Nurda jome' masjidi va rabotlar bo'lgan.

Ziyoratga keluvchilarning asosiy qismi Buxoro aholisi, shuningdek, boshqa joylardan ham bu yerga ko'plab kishilar tashrif buyurishgan. Hozirgi vaqtda ham bu yerga keluvchilarning aksariyati Buxoro va uning atrofidandir. Narshaxiy Nur ziyoratiga borib qaytganlarni hojilar fazilatiga ega bo'lishi to'g'risida ham yozib qoldirgan. Nurning ziyoratgoh bo'lishi, bu joydagi yerda muqaddas qadamjolarining mavjudligi bilan bog'liqdir. Muqaddas buloq, baliqlar, tarixiy obidalar, Sa'id ad-Din Abul Xasan Nuriy, Ar-Rumiy singari tarixiy shaxslarning qabrlari mavjudligi, shuningdek, arablar istilosi davrida Movarounnahrda kelib qolgan va shu tuproqda foniylikdan boqiylikka ketgan hamda Nurda dafn etilgan tobeinlar qabrlari borligi shundan dalolat beradi. Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yili Navoiy viloyatiga tashrifi chog'ida Nurota tumanidagi "Chashma" ziyoratgohi atrofini kengaytirish va obodonlashtirish, sayyohlar uchun zamonaviy mehmonxona qurish yuzasidan bergan ko'rsatmalar asosida chashma atrofida joylashgan "Chilustun" va "Panjvaqta" masjidleri, Abul Hasan Nuriy maqbarasini rekonstruktsiya qilindi.

Ziyoratchi va chet ellik sayyohlar uchun qulayliklarni oshirish, talab yuqoriligini inobatga olinib, mehmonxonalar qurildi, sayyohlarga xizmat turlarini ko'paytirib, aholini qo'shimcha daromad bilan ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratildi. Bugungi kunda ushbu maskanga nafaqat tuman va viloyatimiz yoki Respublikamizning boshqa shahar, tuman va viloyatlaridan balki, dunyoning ko'plab davlatlaridan sayyohlar kelib, yurtimizdagi o'zgarishlar, rivojlanishlar, amalga oshirilayotgan islohotlarga yuqori baho berib ketmoqdalar.

Albatta, bularning barchasi Yangi O'zbekistonni borpo etishda yoshlarimiz ongida milliy g'ururni, vatanparvarlikni, o'z yurtiga sadoqatni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish, yurtimizdagi boy ma'naviy va madaniy merosni

avaylab asrashda daxldorlik hisssini yanada oshirib borishimizda yangidan yangi kuch-g'ayrat bag'ishlaydi¹⁷.

Bugun Yangi O'zbekiston tarixi zarvaraqlariga bitilayotgan bir jumla – "Uchinchi Renessans" atamasiga juda ko'p marotaba duch kelyapmiz. Uning tag zamirida ulug' bir ezgulikni, buyuk bir kuchni anglash mumkin. Zero, renessans uyg'onish demakdir. Ya'ni ilmiy uyg'onish, ma'rifatni anglash va shu asnoda, qadimiy ma'naviy me'rosimizni jamlab, yig'ib borish jarayonidir. Bugun biz ana shunday qutlug' davrda Uchinchi Renessansga poydevor qo'yiladigan zamonda yashayapmiz. Poytaxtimizda o'tkazilgan – Markaziy Osiyo dunyo sivilizatsiyalari chorrahasida Xalqaro madaniyat forumi doirasida O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyatining - O'zbekiston madaniy merosi - Yangi Renessans poydevori V Kongressi ilmiy kuchlarni birlashtirishga qaratilgan noyob tashabbus bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu tadbir chin ma'noda ma'naviyat, madaniyat va ma'rifat ixlosmandlarini bir yoqadan bosh chiqarib, shu asnoda yangi g'oya va tashabbuslarni ishlab chiqishiga sabab bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 3.1. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2006.
- 3.2. Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. O'quv qo'llanma. – T.: "Tafakkur-Bo'stoni", 2011.
- 3.3. Mansurov U., To'xtaboyev A. O'zbekistonning madaniyati va sa'nati tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: "O'z kitob savdo nashryoti matbaa ijodiy uyi, 2021.
- 3.4. Ergashev I. Yoshlarning ijtimoiy faolligi. –T.: "Akademiya", 2020.
- 3.5. Topildiyev O. Yoshlar – kelajak bunyodkorlari. – Namangan, 2013.
- 3.6. To'ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari.O'quv qo'llanma. – T., 2019.
- 3.7. Абдуллаев Х. Санъат тарихи. – Т.: Санъат, 2001.
- 3.7. Mamatov. U. O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy sa'nat asarlari (XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari). – T., 2021.
- 3.8. Abdullayev M., Umarov E. Madaniyatshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. – T., 2006.
- 3.9. Хайруллаев М. Маданий мерос ва фалсафий фикр тарихи. –Т.: Шарқ, 1985.
- 3.10. Ойдинов Н. Ўзбекистон халқлари санъти тарихи (Дастур). – Тошкент, 1993.

¹⁷ Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 1-tom. 2019. – B. 46.